

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## ALISHER NAVOIY HAQIDA JADID ADABIYOTSHUNOSLIGINING ILK RISOLASI

**Hamidulla Boltaboyev**

*O‘zbekiston Milliy universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori.*

*E-mail: [hbaltabaev@mail.ru](mailto:hbaltabaev@mail.ru)*

*Tel.: +998901358590*

**Annotatsiya:** *Maqolada jadid adabiyotshunosligining ilk ilmiy tadqiqotlaridan hisoblangan “Insoniyat haqqida Navoyining fikri” risolasi haqida ma’lumot beriladi, asarning mazmun-mundarijasi, ilmiy ahamiyati ko‘rsatiladi. Asar muallifi prof. Fitrat ekanligi ilmiy dalillar va hujjatlar asosida isbotlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *jadid adabiyotshunosligi, ilk namuna, “Insoniyat haqqida Navoyining fikri”, Fitrat, mazmun-mundarijasi, hujjat.*

**Аннотация:** *В статье анализируется одна из первых научных исследований джадидского литературоведения «Мысли Навои о человечестве», выявлено ее содержания и раскрыто научное значение. Автор статьи при помощи научных обоснований в документов доказывает, что автор этой работы является профессор Фитрат.*

**Ключевые слова:** *джадидское литературоведение, «Мысли Навои о человечестве», содержание, научное значение, документ, Фитрат.*

**Annotation:** *This article is about the first scientific studies of Jadid literary criticism, “Navoi’s Thoughts on Humanity”, reveals its content, scientific significance. The author of the article, with the help of scientific evidence and documents, proves that the author of this work is Professor Fitrat.*

**Key words:** *Jadid literary study, “Navoi’s Thoughts on Humanity”, content, scientific significance, document, Fitrat.*

Alisher Navoiy ijodi ulug‘ shoirning yoshlik davrlaridanoq unga zamondosh bo‘lgan adiblar, tarixchi va tazkiranavislarning e‘tiborini tortgani ma’lum. Bu jihatdan Abdurahmon Jomiy, G‘iyosiddin Xondamir va Faxriy Hiraviy asarlarining nomlarini keltirishning o‘ziyoq navoiyshunoslikning ilk davri manbalari haqida ma’lumot beradi. XX asr boshlariga qadar Alisher Navoiy ijodi haqida ma’lumot beruvchi turk va fors tillarida yozilgan tazkiralarning soni 50 dan ortiq. Yuzga yaqin tarixiy asarlarda Hazratning nomi kechgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ma’rifiy yo‘nalishda, adabiy-estetik mazmuni o‘ziga singdirgan jahon navoiyshunoslari asarlarining o‘zi bir dunyo. Bugungi o‘zbek navoiyshunosligining zimmasida ana shu ulkan adabiy-tarixiy merosni to‘liq o‘zlashtirish va ilmiy muomalaga tortish vazifasi turibdi.

XX asr boshlariga kelib jadid adabiyotshunosligi deb nomlangan fenomenial hodisaning shakllanishida o‘zbek navoiyshunos olimlarining yetarli darajada hissi bor. “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Samarqand”, “Hurriyat”, “Ishtirokiyun”, “Turkiston” gazetalaridagi;

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“Oyna”, “Yurt”, “Er yuzi”, “Tong”, “Inqilob”, “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnallari sahifalaridagi Alisher Navoiy haqidagi maqola va xabarlarni, tanituv chiqishlarining o‘zi jadid matbuoti Navoiy ijodini yoritishga qanchalik jiddiy kirishganini ko‘rsatadi. [8] Bular qatorida Markaziy Osiyoda ilk bor Yozuvchilar va jurnalistlar uyushmasi [7], Fanlar akademiyasining kurtagi sifatida ish boshlagan “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti doirasidagi ishlar salmoqli.[4.40-46] Ayniqsa, gurninging “Til va imlo to‘dasi”, “Adabiyot to‘dasi”, “Musiqiy va teatro‘ to‘dasi” deb nomlangan bo‘limlarining navoiyshunoslik borasidagi faoliyati samarali natijalar berdi.

1919-yilda Turkiston ASSR va Turkiston o‘lkasi Musulmon byurosi mahalliy xalq madaniy merosini to‘plab o‘rganish haqida qaror qabul qildi va bu ishni amalga oshirish uchun Nazir Turaqulov, Laziz Azizzoda va Fitratdan iborat hay‘at tuzildi. [10] Uning kengaytirilgan tarkibida A.Sa‘diy, G‘ozi Yunus, G‘ulom Zafariy, Sh.Rahimiy va rus mustashriqlaridan E.Polivanov, A.Semyonov, A.Divayev va boshqalar bor edi. XX asr 20-yillarining boshlarida hay‘atning Fitrat, Bo‘lat Soliyev, O‘ktam kabi ishtirokchilardan iborat ilmiy guruhi Buxoroda bo‘lib, Qozi Muhammad Siddiqxon, G‘ozi Muhammad Sadri Ziyoy kutubxonalarini sinchiklab o‘rganganlar. Natijada Navoiyning ayrim turkcha asarlari, qariyb to‘rt yuz betdan iborat “Navoiy asarlari uchun lug‘at kitob”i hamda “Tarixi muluki ajam” asarining qo‘lyozmasi topilib, Toshkentga keltirilgan. Bu haqda “Inqilob” jurnalida “Buxoroda qimmatli asarlar” maqolasida xabar berilgan bo‘lib [16], unda aytilishicha, Navoiy asarlari qatorida Imom G‘azzoliy, Sa‘diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Mushfiqiy, Savtiy asarlari ham qo‘lga kiritilgan. Ilmiy guruhning keyingi safarlarida qatnashgan Sh.Rahimiyning “O‘zgarishdan ilgari yerli xalqlar orasida o‘lkani tanish” maqolasida yozishicha, Fitrat rahbarligidagi “Chig‘atoy gurungi” o‘z davrida Alisher Navoiyning suratini topib, e‘lon qilgan.[9] Bundan tashqari, muallif Buxoroda keyinroq topilgan asarlar qatorida “Abushqa” lug‘ati, Husayn Boyqaro devonlarini ham sanaydi. Mana shunday ilmiy harakatlar qizigan bir davrda yuqorida eslatilgan “Insoniyat haqida Navoiy fikri” risolasi chop qilingan.

1926-yilda nashr qilingan Po‘lat Soliyevning “O‘rta Osiyo tarixi” ham “Chig‘atoy gurungi” tomonidan rejalashtirilgan ishlardan biri bo‘lib, 1921-yilgi ilmiy safarda Fitrat bilan birlikda Po‘lat Soliyev va O‘ktam ham qatnashgan edilar. “O‘rta Osiyo tarixi” asarining salmoqli qismi temuriylar davri madaniyatiga tegishli bo‘lib, unda Hirotda harakatda bo‘lgan Navoiy muhiti masalalari ancha izchil yoritilgan. Shunday harakatlardan biri sifatida 1919-yilda nashr qilingan “Insoniyat haqida Navoyining fikri” risolasini “gurung”ning dasturiy yo‘nalishidan kelib chiqib amalga oshirilgan deyish mumkin.[6]

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Qo‘lyozmalar jamg‘armasida muallifi ko‘rsatilmagan “Insoniyat haqqida Navoyining fikri” nomli risola saqlanadi. [5] Ilmiy hay‘at faollaridan biri Laziz Azizzodaning xotirlashicha, ilmiy safar natijasida qo‘lga kiritilgan materiallarni sinchiklab o‘rganib chiqqan Fitrat ularning ayrimlarini, ayniqsa, Navoiyning “Xamsa”siga kirgan dostonlari matnini chuqur o‘rgangan va nashrga tayyorlagan hamda bir qismini “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1-jild) majmuasida chop ettirgan. [11.319]

Masalani oydinlashtirish uchun yana bir muhim hujjatga e‘tibor qarataylik. O‘lka Musulmon byurosi huzuridagi o‘zbeklarni o‘rganish qo‘mitasi 1925-yilning 11-iyulida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ishlarini boshlash haqida tubandagi qarorni qabul qilgan (uning asli matni rus tilida berilgan):

a) Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o‘tkazish maqsadga muvofiq deb topilsin;

b) Alisher Navoiyning nazm va nasrda yozilgan asarlaridan tashkil topgan to‘plam tuzilsin;

c) Alisher Navoiy asarlarining asl nusxalari (originali) hozirgi o‘zbek tiliga tarjimalari bilan nashr qilinsin;

d) tadqiqotlar va namunalar to‘plamining har biri 5 bosma toboqdan belgilansin;

e) tadqiqotlar qismini tayyorlash o‘rtoq Mahmudov (Vadud Mahmud – H.B.)ga, parchalar (namunalar) tanlash ishi Fitratga yuklatilsin.[15]

Shuningdek, “Adabiyot parchalari” nomi bilan majmua chop qilingan [1.138-148] bo‘lib, unda Navoiy asarlaridan namunalar ham berilgan. To‘plamdagi “*Navoiy so‘zlari*” sarlavhasi bilan berilgan namunalarni ayni nomlanish bilan “Insoniyat haqida Navoiy fikri” risolasida uchratamiz. Bundan tashqari, har ikki namuna, asosan, Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasida “Hayrat ul-abror”dan keltirilgan parchalar bilan bir xil bo‘lib, bu uch majmuadagi she‘rlar ayni bir olim tomonidan saylab olinganiga shubha qilmasa ham bo‘ladi. Endi “O‘zbek adabiyoti namunalari”dagi Navoiy asarlaridan keltirilgan parchalar bilan “Insoniyat haqida Navoiy fikri” risolasidagi namunalar ham o‘zaro solishtirilganda bu parchalar, asosan, bir xil ekanligib, faqat ular majmuada “*Ikkiliklar*” sarlavhasi bilan keltirilgan bo‘lsa, risolada “*Navoiyning zolim podshohlar to‘g‘risidagi fikri*”, “*Navoiyning zamona shayxlari to‘g‘risidagi fikri*” kabi sarlavhalari bilan berilgan. Bu zohiriy o‘xshashliklar bilan qoniqmay muallifi ko‘rsatilmagan risoladagi fikrlarni Fitratning ayrim asarlarida bayon qilingan ilmiy mulohazalar bilan qiyosan o‘rganishga urunaylik. Fitrat “O‘zbek

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

adabiyoti namunalari”ning tushuntirish matnida yozadi: “Navoiy podshohlik idoraga qarshi edi deyoilmaymiz. Chunki u o‘z zamonining eng katta podshohiga ulug‘ ixtiyorli vazir bo‘lib turgan kishi. Shunday bo‘laturib, o‘z valine‘matiga tubandag‘icha achchig‘ til bilan xitob qilishi u zamonlarda misli ko‘rilmagan botirlikdandir... tubandagi so‘zlar podshohlik usulining ich yuzini ko‘rsatarlik muhim e‘tirof vaziqalaridandir” deyilib,

*Garchi sinuq igna haqqunozdur,*

*Bag‘ring aro xanjari olmosdur*

bayti va undan keyingi nazm parchalari keltirilgan. [11.319] “Insoniyat haqinda Navoyining fikri” risolasining muallifi yozadi: *“Navoyi zamonaning podshohi bo‘lg‘an Sulton Husayn Mirzoning kengashchisi edi. Ul zamonlardag‘i xonliklarning lozim bo‘lg‘an bir ko‘b yo‘lsizliqlari Navoyining kengashlari bilan qilinmay qolg‘andir. Navoyining podshoh xizmatinda yurishi xalqqa xizmat uchun edi. Navoyi o‘zining “Hayratu-l-abror” degan kitobida podshohliqning haqiqatini ochibg‘ina aytqon”.*

Asardan kichik bir parchani tabdil qilib, uni qayta nashr etgan olim Sh.Turdiyev “risolaning uslubidan Fitratning qalamiga mansublik seziladi”, - deb yozgan edi.[17.6] Mana shu jihatdan risoladagi ushbu jumlar mantiqini kuzataylik: *“Biz aytamizki, bu ish (poraxo‘rlik va fitnalar – H.B.) aqlg‘a, bilimg‘a, mantiqqa to‘g‘ri kelmaydir. Payg‘ambar, Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali zamonlarida shunday ish yo‘q edi”* so‘zlari “Muxtasar islom tarixi”dagi *“so‘ngralari islom ahli ichki fitnalar bilan mashg‘ul bo‘lib, jahongirlikdan qolib ketdi. Agar shu fitnalar bo‘lmasa edi... butun olam musulmonobod bo‘lur edi”*[13.31] jumlasiga yaqin keladi. Shuningdek, risoladagi *“musulmonliqda podshohliq, bekklik degan imtiyozli mansab va martabalar yo‘q edi. Kimning nomi va taqvosi (ulug‘) bo‘lsa, shul kishi xalqning saylovi bilan ish boshiga o‘tib, xalqning nazorati ostinda ishlar edi”* kabi jumlar yuqoridagi “Muxtasar islom tarixi”da *“Hazrati payg‘ambarning vafotlaridan so‘ng Muoviya zamoniga qadar xalifaliq maxsus bir kishining haqqi emas edi. Musulmonlar kimni xohlashsa, o‘shani xalifa qilar edilar”* so‘zlari ayni bir muallif qalamiga mansubligini anglatib turibdi.

Risoladagi *“shayxlar, eshonlarimiz hikmat va axloq olimlari esalar Abdulkarim Giloniy, Abdurahmon Jomiy, Junayd Bog‘dodiy, Abdulqodir Bedil, Jaloliddin Rumiy tarafidan ochilgan hikmat va falsafa yuzini kengaytmoqchi esalar, shul buyuk ustozlardek kitob yozsalar, nutqlar so‘zlasalar, xalq aro chiqib haqiqat darslari bersalar biz ham adabdan burun unlarga xizmat qilarmiz, unlarning qo‘llarini o‘parmiz”* so‘zlari olimning “Ahmad Yassaviy” maqolasidagi *“Jomiy, Ibni Arabiy, Abdulkarim xalifa kabi e‘tiborli tasavvuf muharrirlarining ko‘rsatganlariga ko‘ra,*

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*tasavvufning turli darajalari, turli manzaralari bor*” [12.19] fikrini mantiqan to‘ldiradi. Bunday chog‘ishtirma iqtiboslarni ko‘plab keltirish mumkin. Biroq yuqoridagi parchalarning o‘ziyoq lisoniy va uslubiy jihatdan masalaga bir oz oydinlik kiritadi.

Fitratning maslakdoshlaridan biri bo‘lgan Laziz Azizzodaning xotirasini qayta esga olib [2.11], yuqoridagi qiyosiy tahlil va davrning muhim hujjatlaridagi dalillarni ham qo‘shganda quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

1. “Insoniyat haqqida Navoyining fikri” risolasidagi ayrim mulohazalar bilan Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari”, “Muxtasar islom tarixi”, “Ahmad Yassaviy” nomli maqolalarida aytilgan fikrlar mantiqan o‘zaro yaqin bo‘lib, ayrim hollarda biri ikkinchisining davomidek tasavvur beradi.

2. Risola tarkibida keltirilib, sharh qilingan nazm parchalari, asosan, Navoiyning “Hayratu-l-abror” asarlaridan olingandir. Asardagi parchalar Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasining 1-jildida keltirilgan, Navoiyning ayni asarlaridan olingan parchalar bilan bir xildir.

3. Fitrat ilmiy asarlarida ko‘ringan uslubning qator jihatlari muallifi ko‘rsatilmagan risoladagi uslub bilan o‘zaro yaqin bo‘lib, ulardagi dalillash usuli, fikrni xulosalash tartibi va asarlardagi til jihatlarni o‘rganganda ham shunday xulosa qilish mumkin.

4. Fitrat zamondoshlarining xotiralari va arxiv hujjatlaridagi faktlarni qiyosan o‘rganganda ham risolaning muallifi Fitrat ekanini anglatuvchi dalillar talaygina.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, Toshkentda 1919-yili chop qilingan “Insoniyat haqida Navoyining fikri” risolasi Fitrat qalamiga mansub degan da‘voni ilgari surmoqchimiz. Ayni risolada bayon qilingan fikrlarni o‘rganish natijasida bu davomimiz isbotini topishi mumkin.

Fitrat risolaning “Podshohlar to‘g‘risida Navoiyning fikri” faslida yozadi: *“Podshohlikning buyuk dabdaba va ne‘matlarini so‘ylab, podshoh bilan ulusning insonliq to‘g‘risida ayirmasiz va farqsiz bo‘lganlarini so‘ylaganda:*

*Bil munikim, sen dag‘i bir bandasen,  
Ko‘pragidan ojiz-u afgandasan.*

*Ermas alar tufrog‘-u, sen nuri pok,  
Xilqat alarga-yu senga tiyra xok*

*parchalari orqali podshohning “adl, insof va taqvo” yo‘lida ulusdan o‘ta olmaganini o‘ktamlilik bilan ko‘rsatgan*”. Fitratning talqinicha, hamma xalq Xoliq tomonidan barobar tufroqdan yaralgandir. *“Sen pok nurdan yaraldim deb o‘ylama, chunki “nuri*

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*pok”dan yaralish faqat farishtalargagina nasib qilgan”.* Ayni namunalar zukko navoiyshunos olimimiz A.Qayumov tomonidan o‘rinli talqin qilinganini eslamaslik mumkin emas: “Alisher Navoiy shohlarni ogohlantirib aytadiki, ular ko‘pchilik qatori bir bandadirlar. Hatto o‘sha qullarning ko‘pidan ko‘ra, ojiz va pastdirlar. Demak, shohlarning ilohiy kelib chiqishi, taxt egalarining iloh soyasi ekanliklari to‘g‘risidagi tushunchani u qat’iyan rad qiladi”. [14.34] Fitrat ayni mantiqni risolada o‘z zamondoshlari anglay olarlik tushunchalar bilan izoh qilgan: “*Podshoh bilan ulusining insonliq to‘g‘risida ayirmasiz va farqsiz bo‘lganlarini so‘ylaganda, keyin hunar, ahloq, adl, insof va taqvo yo‘linda ulusdan oldin o‘ta olmaganini buyuk bir o‘ktamlik bilan so‘ylar*”. Bunday talqin risola muallifi tomonidan “Hayratu-l-abror” asari g‘oyat sinchkovlik bilan o‘rganilgani natijasidir.

Ma’lumki, “Hayratu-l-abror”ning to‘rtinchi maqolati “Riyoyi xirqapo‘shlar sulukidakim, o‘z qoshlarida va xirqayi talbislarig‘a haqiqiy libos otdurur va haqoyiqu maoriflari avomg‘a bilosot. Va haqiqiy bodano‘shlar ravishidakim, xirqayi vujudlari fano ilgi zo‘ridin chokdurur va Masihodek jonbaxsh nafaslari ruhi muqaddas kibi pok va mahalli tavflari sohati aflok” kabi izoh bilan boshlangan. [3.133] Fitrat risolada ayni maqolatdan parcha keltirib, uni tubandagicha sharhlagan: “*Ey, qalloblik bilan xirqa yopingan shayx, shom-u sahar zikr aytib, g‘avg‘o qilasan. Kiyimingda aylanasi quroqlar mo‘l bo‘lib, ularning ichiga pul berkitish osondir. Uning tagi, material yolg‘on ipdan to‘qilgan, tikilishda iblisning mo‘ylabi igna vazifasini bajargan. Tasbehini tasbeh dema, buttarosh but yo‘nayotganda uning donalari ushoq chiqindilaridan yasalgan, ular bizning falsafa ustozlarimiz kabi naf’ keltirsalar bosh ustiga, biroq “murid ovlamoqchi esalar, xalqni yo‘q narsa bilan oldab, oqchasini olmoqchi esalar, biz unlarga qarshi turamiz, yolg‘uz biz emas, buyuk otamiz Alisher Navoiy ham ularg‘a qarshi turg‘anlar*”. Mana shu tartibda risolada “Hayrat ul-abror”dagi tabaqalanish bo‘yicha salotinlar, zamona shayxlari, karam-sahovat vasfi, odoblilik odati, qanoat va vafo, rostgo‘ylik va yolg‘on tuzog‘i kabi masalalar haqida batartib kuzatish bor. Risolaning sarlavhasidan ayonki, asarning bosh mavzusi – Inson. Turli tabaqalarga parchalangan, qursoq vajhidan bir-biriga ag‘yorlik otashida yonuvchi, fitna va yolg‘on tuzog‘ining bandalarigina emas, balki shu kabi illatlardan forig‘lanayotgan inson. Ular “*bulutdek foyda keltiruvchi insonlarkim, peshona teri bilan zebi rayhonlarning boshiga gavhar sochadilar, yuzlarida bulut orasidagi chaqmoqdek kulgi ko‘rinib turadir:*

*Ey bo‘lubon subh kibi siymi posh,  
Mehring o‘lub om nechukkim quyosh*

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Ya’ni, “Ey, insonlar orasida tong kabi kumush sochishga o‘rgangan odam, sening mehring quyosh mehriday umumiydir”.* Bu va bundan keyingi ayni maqolatdan keltirilgan, Alisher Navoiy gumanizmining shohbayti bo‘lib yangragan:

*Odami ersang demagil odami,*

*Onikim yo ‘q xalq g‘amidin g‘ami*

baytlari ham har bir inson qalbida aks sado berarkan, bu so‘zlar ilk Fitrat tomonidan tabdil va talqin etilib, zamondoshlarimizga havola etilgani yodimizga kelmaydi. Shunday bo‘lsa ham ushbu baytning insoniylik madhiyasi kabi xalqqa singib ketishining o‘zi olim ilmining amaldagi tasdig‘i hamdir.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adabiyot parchalari / Jadid kulliyoti. To‘plam. – T.: Zabarjad media, 2023. – B. 138–148.
2. Azizzoda L. Fitrat kim edi? / O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi jamg‘armasi. – B. 11.
3. Alisher Navoiy. Hayratu-l-abror / MAT. 7-jild. – T.: Fan, 1991. – B. 133.
4. Boltaboyev H. “Chig‘atoy gurungi” to‘garakmi? yo tashkilot... / Fitrat va jadidchilik. – T., 2007. – B. 40-46.
5. Boltaboyev H. Fitratning noma’lum risolasi. // Turkiston. – 1996. – 21 noyabr.
6. Insoniyat haqqida Navoyining fikri. – T.: Musulmon Ishtirokiyun firqalarining o‘lka byurosi huzuridagi nashriyot sho‘basi, 1919.
7. Karimov N. O‘zbekistonda adabiy harakatlar // O‘zAS. – 1995. – 20 yanvar.
8. Milliy matbuot fihristi / Tuzuvchi F.Nuriddinova. – T.: Mumtoz so‘z, 2020.
9. Rahimiy Sh. O‘zgarishdan ilgarigi yerli xalqlar orasida o‘lkani tanish. // Qizil O‘zbekiston. – 1924. – 19-son.
10. Usmonov O. Fitrat va “Chig‘atoy gurungi” // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1995. – 4 son.
11. Fitrat A. O‘zbek adabiyoti namunalari. I jild. – Toshkent-Samarqand: O‘znashr, 1928. – 319 b.
12. Fitrat A. Ahmad Yassaviy / Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: Ma’naviyat, 2000 (nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev). – B. 19.
13. Fitrat. Muxtasari tarixi islom. – Samarqand: 1333/1914; [Muxtasar islom tarixi] – T.: Nur, 1992. – 31 b. (Forschadan Muhammad Nodir va Hamidulloh Andijonli tarj.)
14. Qayumov A. “Hayrat ul-abror” talqini. – T.: 1977. – B. 34.
15. O‘zR Davlat Markaziy arxivi. Fond 46. 1-ro‘yxat. 266-ish.
16. “Inqilob”. – 1923. – 2 son.
17. “Sirli olam”. – 1991. – 2 son. – B. 6.